


SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2020-yil yanvar*)

2020-yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 33,8 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 11,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 10,3 mln. AQSH dollarga (o'sish sur'ati 120,7 %) va import hajmi 23,5 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 108,4 % ga) yetdi. Tashqi savdo saldosini minus 13,3 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi

(yanvar oyi, mln. doll. AQSh, ulushi % da)



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2020-yilning yanvar oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,8 mln. AQSH dollarga ko'proq eksport qilindi, tovar va xizmatlar importi hajmi esa 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,8 mln. AQSH dollariga ko'proqdir.

Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar (2020-yil yanvar)


(ming. AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, % da	o'zgarish sur'ati, % da
Xitoy	9 058,4	3 296,0	5 762,4	26,8	61,6
Rossiya	8 123,9	1 825,0	6 299,0	24,0	3,8 b.
Qozog'iston	5 362,3	1 182,9	4 179,5	15,9	99,5
Turkmaniston	3 097,8	225,5	2 872,2	9,2	136,5
Turkiya	2 043,5	355,7	1 687,8	6,0	2,5 b.
Afg'oniston	1 392,4	1 392,4	-	4,1	17,8 b.
Qirg'izston	790,2	53,5	736,8	2,3	6,3 b.
Bangladesh	741,6	741,6	-	2,2	-
Koreya Respublikasi	580,6	0,6	580,1	1,7	67,5
Pokiston	529,2	521,6	7,6	1,6	5,5 b.
Tojikiston	403,2	377,7	25,5	1,2	7,2 b.
Germaniya	378,5	-	378,5	1,1	5,3 b.
Litva	269,1	-	269,1	0,8	87,3
Vengriya	221,2	-	221,2	0,6	-
Ukraina	207,1	73,3	133,8	0,6	102,5
Belarusiya	176,7	7,8	168,9	0,5	83,0
Vetnam	105,5	-	105,5	0,4	2,3 b.

2020-yilning yanvar oyi yakuni bo'yicha tovarlar eksporti bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni 19 tani tashkil qildi.


Viloyat tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(yanvar oyi)




Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi hajmi

(yanvar mln. AQSH dollari)




Tashqi savdo aylanmasi dinamikasidan keltirilgan ma'lumotlar ko'rsatkichlarning qolgan yillarga nisbatan o'sganligini ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, 2020-yil yanvar oyida amalga oshirilgan eksport hajmi, o'tgan yillarga nisbatan ko'payib, 10,3 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.


**Tashqi savdo aylanmasida eksport va import ulushi, % da
(yanvar)**



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil yanvar oyi tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 53,8 % ni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi 2019-yilning shu davriga nisbatan 74,4 % ga o'sdi.

**Tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa
Xorijiy davlatlarning hajmlari dinamikasi
(yanvar, mln. AQSH. dollari)**





Boshqa xorijiy davlatlarning, viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019-yilning yanvar oyi 65,5 % ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 46,2 % ga tushdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 21,1 % ga kamaydi.



EKSPORT

2020-yil yanvar oyida eksport hajmi 10,3 mln. AQSH dollarga (o'sish sur'ati 120,7 %) teng bo'ldi. Eksport tarkibida asosan to'qimachilik va to'qimachilik buyumlari (17,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (27,6 %), paxta tolasi (14,2 %) ni tashkil qiladi.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi
(mln.AQSh.dollari)

2019-yil

2020-yil



2020-yilning yanvar oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,7 % ga o'sish qayd etildi va 2020-yilning yanvar oyida amalga oshirilgan eksportning umumiy hajmida ayrim turdagi tovar va xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Eksport tarkibi

(2020-yil yanvar)

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami	10,3	120,7	100,0	3,8	120,2	100,0	6,5	121,0	100,0
Paxta tolasi	1,5	2,2 b.	14,2	-	-	-	1,5	2,2 b.	22,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	2,8	188,8	27,6	0,7	111,7	18,8	2,1	2,4 b.	32,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	0,2	138,6	1,7	0,2	138,6	4,6	-	-	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	0,6	177,4	5,7	0,6	177,4	15,4	-	-	-
Xizmatlar	0,2	149,0	1,5	0,1	113,8	2,3	0,1	2,4 b.	1,1
Boshqalar	5,0	87,3	49,3	2,2	112,5	58,9	2,8	74,3	43,7

Eksportda asosiy hamkor davlatlarning ulushi

(yanvar oyi)





IMPORT

2020-yilning yanvar oyida import hajmi 23,5 mln. AQSH dollariga (o'sish sur'ati 108,4 % ga) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (49,0 %), mashina va uskunalari (29,7 %), energiya manbaalari (0,3 %), hamda qora va rangli metallar (1,6 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh doll)

2019-yil
yanvar

2020-yil
yanvar




Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2020-yilning yanvar oyi mobaynida viloyatda import qilinayotgan tovar va xizmatlar 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 1,8 mln. AQSH dollarga ko'p import qilindi va 23,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Import tarkibi (2020-yil yanvar)

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Import	23,4	108,4	100,0	14,4	197,8	100,0	9,0	108,4	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,3	117,5	14,2	3,3	123,7	22,7	0,0	117,5	0,9
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	10,9	102,4	46,3	6,9	175,6	48,5	4,0	102,4	43,0
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	1,6	26,8 b.	6,9	1,6	25,7 b.	10,8	0,0	26,8 b.	0,7
Qora metallar	0,2	102,4	0,9	0,1	78,4	1,0	0,1	102,4	0,9
Rangli metallar	0,0	16,6	0,1	-	-	-	0,0	16,6	0,2
Mashina va asbob-uskunalar	4,3	66,3	18,2	0,3	5,1 b.	2,0	4,0	66,3	43,8
Xizmatlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Boshqalar	3,1	2,3 b.	13,4	2,2	6,1 b.	15,1	0,9	2,3 b.	10,5

Importda asosiy hamkor davlatlarning ulushi

yanvar



Import tarkibi dinamikasi (mln. AQSH dollari)

Tarkib	2016-yil yanvar	2017-yil yanvar	2018-yil yanvar	2019-yil yanvar	2020-yil yanvar
Jami	12,6	6,9	9,0	21,7	23,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	0,6	0,5	1,5	2,8	3,3
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	2,5	4,4	1,6	10,7	10,9
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	0,0	0,1	1,6
Qora metallar	0,0	0,6	0,2	0,2	0,2

Tarkib	2016-yil yanvar	2017-yil yanvar	2018-yil yanvar	2019-yil yanvar	2020-yil yanvar
Rangli metallar	0,0	0,0	0,0	0,1	0,0
Mashina va asbob- uskunalar	9,2	0,8	4,4	6,5	4,3
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	-	-
Boshqalar	0,3	0,6	1,3	1,3	3,1

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020-yilning yanvar oyi mobaynida import qilingan tovarlar hajmi, 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,8 mln. AQSH dollariga kop import qilindi va 441,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

**Sirdaryo viloyatida
asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi
(yanvar oyi)**

Davlat nomi	ming. AQSH dollari		ulishi, %		o 'rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Rossiya	905,9	6 299,0	4,3	26,7	4	1
Xitoy	10 416,2	5 762,4	49,1	24,5	1	2
Qozog'iston	3 940,6	4 179,5	18,6	17,7	2	3
Turkmaniston	2 255,2	2 872,2	10,6	12,2	3	4
Turkiya	796,9	1 687,8	3,8	7,2	6	5
Qirg'izston	69,0	736,8	0,3	3,1	14	6
Kopea Respublikasi	860,2	580,1	4,1	2,5	5	7
Germaniya	71,4	378,5	0,3	1,6	13	8
Latviya	334,5	269,1	1,6	1,1	8	9
Vengriya	-	211,2	-	0,9	27	10

Belarusiya	-	168,9	-	0,7	20	11
Vetnam	63,5	150,5	0,3	0,6	15	12
Ukraina	41,9	133,8	0,2	0,6	18	13
Eron	3,1	64,6	-	0,3	19	14
Tojikiston	-	25,5	-	0,1	21	15
Buyuk Britaniya	-	12,7	-	0,1	28	16
AQSh	158,5	11,1	0,7	0,0	10	17
Pokiston	-	7,6	-	0,0	22	18

2020-yilning yanvar oyida viloyatda 21 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Turkmaniston, Turkiya va Qirg'izston hamkor davlatlaridan jami import hajmi 21,5 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 91,4 % ini tashkil qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan to'yintirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:(71) 230-86-34**